Tadqiqot metodologiyasi sifatida texnologik xaritalar, standartlar tahlili hamda sifat ko'rsatkichlarini baholash usullariga asoslangan tizimli yondashuv qo'llanilgan. Natijada ipak mahsulotlari sifatini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish va eksport salohiyatini kengaytirish uchun zarur bo'lgan texnologik hamda nazorat mexanizmlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ipak sanoati, pilla yetishtirish, ishlab chiqarish texnologiyasi, sifat nazorati, xalqaro standartlar, OEKO-TEX®, GOTS, O'zDSt, GOST, ISO, sifat ko'rsatkichlari, eksport salohiyati, innovatsion texnologiyalar, texnologik jarayon, sifat tizimi.

Abstract. This article examines the issues of modernizing the silk industry of the Republic of Uzbekistan, introducing innovative technologies into production processes, and developing a quality control system aligned with international standards. The study provides a step-by-step analysis of the technological chain, from cocoon production to silk yarn manufacturing, identifying quality indicators, critical control points, and the technical standards underlying each stage.

The research applies an evaluation approach based on the requirements of international quality and environmental standards such as OEKO-TEX® Standard 100 and GOTS. Furthermore, scientifically grounded recommendations are developed based on national regulatory documents of the Republic of Uzbekistan, as well as international and local scientific literature and practical experience.

The research methodology is based on a systematic approach, including technological mapping, standards analysis, and methods for assessing quality indicators. As a result, key technological and control mechanisms necessary for improving the quality of silk products, optimizing production processes, and expanding export potential are identified and substantiated.

Keywords: silk industry, cocoon production, manufacturing technology, quality control, international standards, OEKO-TEX®, GOTS, UzDSt, GOST, ISO, quality indicators, export potential, innovative technologies, technological process, quality system.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы модернизации шелковой промышленности Республики Узбекистан, внедрения инновационных технологий в производственные процессы и формирования системы контроля качества, гармонизированной с международными стандартами. В исследовании поэтапно проанализирована технологическая цепочка — от выращивания коконов до производства шелковой нити, определены показатели качества, ключевые контрольные точки и соответствующие технические стандарты на каждом этапе.

В работе применён подход к оценке производственных процессов на основе требований международных стандартов качества и экологической безопасности, таких как OEKO-TEX® Standard 100 и GOTS. Также на основе нормативно-правовых документов Республики Узбекистан, международных и отечественных научных источников, а также практического опыта разработаны научно обоснованные рекомендации.

Методология исследования основана на системном подходе с использованием технологических карт, анализа стандартов и методов оценки показателей качества. В результате определены и обоснованы технологические и контрольные механизмы, необходимые для повышения качества шелковой продукции, совершенствования производственных процессов и расширения экспортного потенциала.

Ключевые слова: шелковая промышленность, производство коконов, технология производства, контроль качества, международные стандарты, OEKO-TEX®, GOTS, O'zDSt, ГОСТ, ISO, показатели качества, экспортный потенциал, инновационные технологии, технологический процесс, система качества.

KIRISH

Ipak sanoati O'zbekistonning an'anaviy ishlab chiqarish tarmoqlaridan biri bo'lib, nafaqat milliy meros sifatida, balki xalqaro bozorda raqobatbardosh eksport yo'nalishi sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda qadimdan shakllangan ipakchilik sohasi bugungi kunda qishloq xo'jaligi va yengil sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishida muhim o'rin egallamoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan ipak mahsulotlari ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda xalqaro standartlarga mos mahsulot eksportini kengaytirishga qaratilgan keng ko'lami chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [1–5]. Ushbu jarayonda zamonaviy tuzorlarni barpo etish, yuqori sifatli pilla yetishtirish, uni chuqur qayta ishlash hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga ustuvor e'tibor qaratilmoqda.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda mamlakatda 25,9 ming tonna pilla xomashyosi yetishtirilgan bo'lib, bu ko'rsatkich avvalgi yilga nisbatan 7 foizga oshgan. O'zbekiston har yili o'rtacha 25 ming tonnadan ortiq pilla yetishtirib, bu borada jahon miqyosida yetakchi uch davlat qatoridan o'rin egallab kelmoqda. Mazkur natijalar mamlakatning Osiyodagi muhim ipak ishlab chiqarish markazlaridan biri sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi.

Pillani chuqur qayta ishlash yo'nalishida ham sezilarli ijobiy siljishlar kuzatilmoqda. Hozirgi kunda respublikada faoliyat yuritayotgan ipak ajratish korxonalarini yiliga 1 600 tonnagacha ipak ipi ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lsa-da, amalda ishlab chiqarish hajmi 800–1 300 tonna atrofida shakllanmoqda. Ushbu ipak ipi keyinchalik to'qimachilik korxonalarida qayta ishlanib, yiliga 2,5 million metrdan ortiq ipak mato ishlab chiqarilishiga erishilmoqda.

Mamlakatda ipakchilik tarmog'ini rivojlantirishda xorijiy hamkorlik aloqalari ham muhim o'rin tutadi. Xususan, Germaniyaning Deutsche Gesellschaft für Internationale Zusammenarbeit tashkiloti bilan hamkorlikda tuzorlarning genetik bazasini mustahkamlash, intensiv navlarni joriy etish, qishloq aholisi uchun yangi ish o'rinlarini yaratish hamda mahsulotni chuqur qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda.

Xalqaro miqyosda O'zbekiston ipak mahsulotlariga bo'lgan talab ham izchil ortib bormoqda. Jahon bozorida umumiy ipak ishlab chiqarish hajmi taxminan 202 ming tonna deb baholanar ekan, O'zbekiston ushbu hajmning muhim qismini ta'minlab, global ipak bozorida ishtirokini izchil mustahkamlab bormoqda.

Umuman olganda, O'zbekiston ipakchilik sanoati an'anaviy hunarmandchilik asosidan zamonaviy, innovatsion va eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy tarmoqqa transformatsiya qilinmoqda. Ushbu jarayonda ipak yetishtirish, uni qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarishda xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta'minlash mamlakatning jahon bozorida raqobatbardoshligini yanada oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ipak mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonining texnologik va sifat ko'rsatkichlarini ilmiy asoslashda, avvalo, ipak tolasi hosil bo'lish mexanizmi hamda uning strukturaviy xususiyatlarini yoritgan xorijiy tadqiqotlar muhim nazariy asos yaratadi. Fritz Vollrath va David P. Knight tomonidan ilgari surilgan suyuq kristall holatdagi shakllanish konsepsiyasi ipak tolasi mustahkamligi va elastikligini izohlashda muhim o'rin tutadi [8].

Zhang seritsinning funksional xossalarini asoslab, sifat ko'rsatkichlarini shakllantirishda uning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi [9]. Gregory H. Altman va hammualliflar esa fibroinning biomasligi hamda qayta ishlanish jarayonlarini tizimli ravishda yoritib, texnologik bosqichlarning mahsulot sifatiga ta'sirini ochib bergan [10].

Shuningdek, X. Hu, R.S. Blackburn, S.C. Kundu va D.N. Rockwoodlarning ilmiy ishlari tolalar tuzilishi, ekologik omillar hamda texnologik intizomning mahsulot sifatiga bevosita ta'sirini asoslab beradi [11–14]. Mazkur tadqiqotlar ipak mahsulotlari sifatini baholashda "strukturaviy tuzilma – texnologik jarayon – yakuniy xossa" o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ilmiy jihatdan asoslaydi.

So'nggi ilmiy ishlarda ipak materiallarining zamonaviy qo'llanilish yo'nalishlari hamda sifatni boshqarishning yangi yondashuvlari yanada kengaytirilgan. Rehman va hammualliflar pillaning ierarxik tuzilishini ochib berib, xomashyo sifati ishlab chiqarish samaradorligining boshlang'ich omili ekanini ko'rsatgan [15]. Zhang va Roohani esa fibroinning molekulyar darajada boshqariladigan xossalarini asoslab bergan [16].

Lu va hammualliflar ipak savdosining barqaror rivojlanishini iqtisodiy omillar bilan bog'lab, sifat va raqobatbardoshlik o'rtasidagi uzviy aloqani ko'rsatadi [17], Fan va boshqalar esa genetik yondashuvlar orqali ipak sifatini oshirish istiqbollarini yoritgan [18]. Ushbu tadqiqotlar ipak mahsulotlarini yuqori qo'shimcha qiymatga ega material sifatida baholash imkonini beradi hamda sifatni boshqarishda zamonaviy ilmiy yondashuvlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar esa ipakchilikning amaliy jihatlarini, xususan, xomashyo yetishtirish, pilla sifati va uni qayta ishlash jarayonlarini chuqur yoritadi. Nasirillaev va hammualliflar hamda Xojimatov ipakchilik tarmog'ining rivojlanish strategiyasini asoslab, sifat ko'rsatkichlarini oshirishni milliy iqtisodiy ustuvor vazifa sifatida talqin etadi [19–20].

Batirova va boshqalar, shuningdek, Nasirillaev va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar biologik omillar, zot tanlash va iqlim sharoitining pilla sifatiga ta'sirini aniqlagan [21–22]. Qodirov va hammualliflar esa boqish va pilla o'rash jarayonlarining sifat ko'rsatkichlariga ta'sirini asoslab bergan [23].

Bundan tashqari, Raximovlar, Bekkamov hamda Sulaymonovlarning ilmiy ishlari dastlabki ishlov berish, saqlash va kimyoviy omillarning ipak sifati shakllanishidagi muhim rolini ko'rsatadi [24–27].

Yuqoridagi adabiyotlar tahliliga tayangan holda, ipak mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonida texnologik bosqichlar, xomashyo sifati va yakuniy mahsulot ko'rsatkichlari o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligi aniqlanadi. Biroq mavjud tadqiqotlarda ushbu omillar ko'pincha alohida yo'nalishlarda o'rganilgan bo'lib, ularni yagona integratsiyalashgan tizim sifatida boshqarish masalasi yetarli darajada yoritilmagan.

Shu sababli texnologik jarayonlar va sifat ko'rsatkichlarini kompleks baholash hamda ularni o'zaro uyg'un holda boshqarish bo'yicha ilmiy-uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ishlab chiqarishning asosiy texnologik bosqichlarini o'rganish, sifat ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni xalqaro standartlar asosida baholashga qaratilgan kompleks yondashuv qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ipak mahsulotlarini ishlab chiqarish ko'p bosqichli, murakkab va o'zaro uzviy bog'langan texnologik jarayonlardan iborat bo'lib, har bir bosqich yakuniy mahsulot sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jarayonlar biologik bosqichlardan boshlanib, mexanik, kimyoviy hamda to'qimachilik ishlovlari orqali yakuniy mahsulotni shakllantiruvchi zanjirli tizimni tashkil etadi.

Mazkur texnologik zanjirning har bir bo'g'inida sifat ko'rsatkichlari, muhim nazorat nuqtalari va standart talablar asosida monitoring olib borilishi zarur. Ayniqsa, pilla yetishtirish, dastlabki ishlov berish, ipak ipini ajratish hamda mato ishlab chiqarish bosqichlarida texnologik intizomga qat'iy rioya qilish mahsulot sifatining barqarorligini ta'minlaydi.

Quyidagi 1-jadvalda ipak mahsulotlarini ishlab chiqarishning asosiy texnologik bosqichlari tizimli ravishda keltirilgan.

1-jadval. Ipak mahsulotlarini ishlab chiqarishning texnologik bosqichlari¹

| Bosqich | Jarayon tavsifi | Asosiy sifat ko'rsatkichlari |
|--|---|---|
| 1. Pilla yetishtirish | Ipak qurti (<i>Bombyx mori</i>) tut barglari bilan boqiladi, 25–30 kun ichida pilla hosil qilinadi. | Pilla og'irligi, tola uzunligi, tuxumsizligi, zararkunanda yo'qligi |
| 2. Quritish va saralash | Pillalar issiqlik yordamida quritiladi, so'ng zichligi va sifati bo'yicha saralanadi. | Namlik ≤12%, silliqlik, zichlik, tozaligi |
| 3. Pilla qayta ishlash (ipakni ajratish) | Pillaning tashqi qobig'i yumshatilib, ip holida tolalar ajratiladi. | Tola uzluksizligi, mustahkamligi, ip silliqligi |
| 4. Ipni quritish va dukkalash | Ajratilgan ipak iplar quritiladi va o'rama (dukka) holatida saqlanadi. | Quritish darajasi, yelim qoldiqlari yo'qligi, gigiyenik xavfsizlik |
| 5. Bo'yash va bezash | Ipak tabiiy yoki sintetik bo'yoqlar bilan bo'yaladi, yumshatiladi, estetika beriladi. | Rang barqarorligi, toksik moddalarsizligi, ekologik xavfsizlik |
| 6. To'qimachilik mahsulotiga aylantirish | Ip to'qiladi, tikiladi va tayyor mahsulot shaklida bezatiladi. | Matoning mustahkamligi, egiluvchanligi, jozibadorligi |
| 7. Yakuniy sifat nazorati | Tayyor mahsulot laboratoriya va vizual nazoratdan o'tkaziladi. | ISO, OEKO-TEX®, GOTS standartlariga muvofiqlik, gigiyena, estetika |

Ipak mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi bosqichma-bosqich va o'zaro uzviy bog'langan jarayonlardan iborat bo'lib, har bir bosqich mahsulot sifatini belgilovchi muhim halqa sifatida qaraladi. Jadvalda ushbu bosqichlar tizimli tarzda tasniflanib, ularning mazmuni hamda asosiy sifat ko'rsatkichlari aniq va izchil ifodalangan.

Dastlabki bosqich — pilla yetishtirish — ipakchilik zanjirining biologik asosini tashkil etadi. Bu jarayonda ipak qurti sifatli tut barglari bilan oziqlantirilib, optimal mikroiklim sharoitida parvarish qilinadi. Aynan shu bosqichda pillaning og'irligi, tola uzunligi, tuxumdan bo'shligi hamda umumiy sog'lomligi kabi ko'rsatkichlar shakllanadi. Ushbu omillar pilla sifatining asosiy mezonlari bo'lib, keyingi texnologik bosqichlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Keyingi bosqich — quritish va saralash — yig'ilgan pillani biologik faoliyatdan chiqarish, ya'ni ipak qurtining rivojlanish jarayonini to'liq yakunlash hamda mahsulotni saqlashga tayyorlashga qaratilgan. Quritishdan so'ng pillalar zichligi, silliqligi, shakli va tolalar holatiga ko'ra saralanadi. Bu bosqichda namlik miqdorini 10–12 % gacha kamaytirish orqali keyingi ishlov berish uchun mos va bir xil xomashyo shakllantiriladi.

Uchinchi bosqich — pillani qayta ishlash, ya'ni ipak ipini ajratish — texnologik zanjirda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu bosqichda pillaning tashqi qobig'i yumshatilib, tolalar issiq suv yordamida ajratiladi. Ajratilgan tola mustahkam, uzluksiz va silliq bo'lishi talab etiladi, chunki aynan shu xususiyatlar ipak ipining texnologik hamda estetik sifatlarini belgilaydi.

To'rtinchi bosqich — ipni quritish va dukkalash — ajratilgan ipak iplarini saqlashga tayyorlash jarayonidir. Bu bosqichda iplar ortiqcha namlikdan tozalanib, maxsus dukkalarda o'raladi. Quritish jarayonida ortiqcha issiqlik yoki noto'g'ri saqlash tolaga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi sababli, gigiyenik va texnologik talablar qat'iy nazorat qilinadi.

Beshinchi bosqich — bo'yash va bezash — ipak mahsulotining vizual ko'rinishi hamda ekologik xavfsizligini shakllantiradi. Ipak iplar tabiiy yoki sintetik bo'yoqlar yordamida ranglanib, estetik jihatdan jozibador ko'rinish beriladi. Bu jarayonda OEKO-TEX® va GOTS kabi xalqaro standartlarga muvofiq, inson salomatligi uchun xavfsiz bo'yoqlardan foydalanish muhim hisoblanadi.

Oltinchi bosqich — to'qimachilik mahsulotiga aylantirish — bo'yalgan ipak iplarini matoga aylantirish, tikish yoki boshqa mahsulotlarga ishlov berish jarayonini o'z ichiga oladi. Bu bosqichda matoning silliqligi, mustahkamligi, elastikligi va estetik ko'rinishi asosiy sifat ko'rsatkichlari sifatida baholanadi.

Yakuniy bosqich — sifat nazorati — tayyor mahsulotlarning barcha ko'rsatkichlar bo'yicha kompleks baholanishini ta'minlaydi. Maxsus laboratoriya va vizual sinovlar orqali mahsulotning xalqaro standartlar va sertifikatlar (GOTS, OEKO-TEX®, ISO 9001 va boshqalar) talablariga muvofiqligi aniqlanadi. Faqat to'liq talablarga javob beruvchi mahsulotlarga ichki va tashqi bozorlarga chiqariladi.

Shunday qilib, jadvalda keltirilgan bosqichlar ipak mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonining barcha halqalarini izchil yoritadi. Har bir bosqichda aniqlik, sifat va texnologik intizomni ta'minlash yakuniy mahsulot qiymati va raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

1 Muallif ishlanmasi



Ipak mahsulotlari sifatini baholashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan fizik, kimyoviy va gigiyenik ko'rsatkichlar mavjud. Quyidagi 2-jadvalda texnologik bosqichlar kesimida sifat ko'rsatkichlari va muhim nazorat nuqtalari tizimli ravishda keltirilgan.

2-jadval. Texnologik bosqichlar bo'yicha sifat ko'rsatkichlari va nazorat nuqtalari²

| Bosqich | Asosiy sifat ko'rsatkichlari | Nazorat nuqtalari |
|---|---|--|
| 1. Pilla yetishtirish | <ul style="list-style-type: none"> - Tola uzunligi (≥ 1000 m) - Pilla og'irligi (≥ 2 g) - Sog'lom rivojlangan ipak qurti - Tuxumsizlik darajasi | <ul style="list-style-type: none"> - Oziqlantirish sifati (tut barglari) - Mikroiklim sharoiti ($25-28$ °C, $85-90$ % namlik) - Parvarish rejimi (tozalik, zichlik) |
| 2. Quritish va saralash | <ul style="list-style-type: none"> - Quritilgan pillaning namligi (≤ 12 %) - Ichki tuxum faoliyatsizligi - Saralangan pillalarning bir xilligi | <ul style="list-style-type: none"> - Quritish harorati ($55-65$ °C) va davomiyligi - Tabiiy/yog'ochli pillalarni ajratish - Zichlik bo'yicha saralash mezonlari |
| 3. Pilla qayta ishlash (ipakni ajratish) | <ul style="list-style-type: none"> - Tola uzluksizligi (kamida 600 m) - Ipning silliqiligi va elastikligi - Mustahkamlik (≥ 300 m/g) | <ul style="list-style-type: none"> - Qaynash harorati va davomiyligi - Tola chigallik darajasi - Ajratilgan ip o'rtacha diametri |
| 4. Ipni quritish va dukkalash | <ul style="list-style-type: none"> - Namlik darajasi (≤ 10 %) - Tolada qoldiq yelim yoki ifloslik bo'lmasligi - Gigiyenik tozaligi | <ul style="list-style-type: none"> - Quritish harorati ($40-50$ °C) - Havo aylanishi va vaqt - O'ram (dukka) zichligi va simmetriyasi |
| 5. Bo'yash va bezash | <ul style="list-style-type: none"> - Rang barqarorligi (≥ 4 ball, ISO skala) - Bo'yoqni yutish darajasi - Bo'yoqdagi zararli moddalar mavjud emasligi | <ul style="list-style-type: none"> - Bo'yoq eritmasining pH ($4-7$) - Azo-bo'yoqlar mavjudligi testi - Rang barqarorligi testi (suvda, terda, yuvishda) |
| 6. To'qimachilik mahsulotiga aylantirish | <ul style="list-style-type: none"> - Mato silliqiligi va zichligi - Elastiklik va mustahkamlik - Estetik jozibadorlik | <ul style="list-style-type: none"> - To'qish zichligi (g/m^2) - Ip tortilishi va uzilish kuchi - Dizayn va simmetriya tekshiruvi |
| 7. Yakuniy sifat nazorati | <ul style="list-style-type: none"> - Gigiyenik xavfsizlik - Ekologik muvofiqlik (GOTS/OEKO-TEX®) - Yopiq nuqsonlar, dog'lar yo'qligi | <ul style="list-style-type: none"> - Laboratoriya tahlil (formaldegid, azo test) - Vizual tekshiruv (dog', rang o'zgarishi) - Sertifikatlash talablari asosida umumiy baho |

Ipak mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida har bir texnologik bosqichda mahsulot sifatini belgilovchi aniq mezonlar mavjud bo'lib, ular tegishli nazorat nuqtalarida baholanadi. Yuqoridagi jadvalda ushbu bosqichlar ketma-ketlikda keltirilib, ularga mos sifat ko'rsatkichlari, texnologik nazorat nuqtalari hamda ularni tartibga soluvchi amaldagi xalqaro va milliy standartlar aniq va tizimli tarzda ifodalangan.

Mazkur tizimlashtirish orqali ipak mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayoni nafaqat texnologik jihatdan, balki sifat menejmenti nuqtai nazaridan ham samarali tartibga solinadi. Har bir bosqichda qo'llaniladigan normativ hujjatlar — ISO, OEKO-TEX®, GOTS va O'zDSt standartlari — mahsulotning ekologik, gigiyenik va texnik xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, eksportbop mahsulot ishlab chiqarishda ushbu standartlarga rioya etilishi iste'molchilar uchun barqaror va ishonchli sifat kafolatini yaratadi.

Shu bois, jadvalda ifodalangan yondashuv kompleks texnologik jarayonni standartlashtirilgan nazorat mexanizmlari bilan uyg'unlashtirib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Ipak mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonining har bir bosqichida xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta'minlash nafaqat mahsulot sifatini kafolatlaydi, balki uning eksport salohiyatini kengaytirish va global bozorda raqobatbardoshligini mustahkamlashda ham muhim omil hisoblanadi. Hozirgi kunda xalqaro to'qimachilik va ipak sanoatida keng e'tirof etilgan me'yoriy hujjatlar qatoriga ISO, GOTS va OEKO-TEX® Standard 100 kiradi.

Ipak mahsulotlarining ekologik xavfsizligi va inson salomatligi uchun zararsizligini ta'minlashda OEKO-TEX® Standard 100 alohida ahamiyatga ega. Ushbu standart mahsulot tarkibida pH muvozanati, formaldegid, azo-bo'yoqlar, pestitsidlar va boshqa zararli moddalar mavjud emasligini tasdiqlash orqali iste'molchilar uchun yuqori darajadagi xavfsizlikni kafolatlaydi. Bu ayniqsa, teri bilan bevosita aloqada bo'ladigan mahsulotlar — kiyim-kechak, ichki kiyim, ro'mol, parda va matolar uchun muhim hisoblanadi.

Shuningdek, ipak mahsulotlarining organik xomashyodan tayyorlanganligini tasdiqlovchi GOTS 6.0 (2023) standarti ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu standart ekologik toza bo'yoqlar va xavfsiz kimyoviy moddalar qo'llanilgan, shuningdek, mehnat huquqlari va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga rioya etilgan ishlab chiqarish

jarayonlarini sertifikatlaydi. Bu esa nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki xalqaro bozorda mahsulotga bo'lgan ishonchni oshiradi.

Mazkur standartlarga muvofiq ishlab chiqarishni tashkil etish texnologik jihatdan ilg'orlikni namoyon etish bilan birga, eksport imkoniyatlarini kengaytiradi va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratadi. Shu sababli, tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan texnologik yechimlar, ishlov berish parametrlari va sifat nazorati tizimlari xalqaro talablarga moslashtirilgan holda shakllantirildi. Ushbu yondashuv ishlab chiqarishning barqarorligini, mahsulot xavfsizligini hamda bozor sharoitida raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi (3-jadval).

3-jadval. GOTS va OEKO-TEX® Standard 100 talablari bo'yicha taqqoslovchi jadval³

| Yo'nalish | GOTS 6.0 (2023) | OEKO-TEX® Standard 100 (2024) |
|---------------------------------------|---|---|
| Asosiy maqsad | Organik xomashyodan tayyorlangan tekstil mahsulotlarining ekologik va ijtimoiy jihatdan barqaror ishlab chiqarilishini nazorat qilish | Mahsulotning inson salomatligi uchun xavfsizligini ta'minlash, zararli moddalar mavjud emasligini isbotlash |
| Xomashyo talablari | Kamida 70% yoki 95% organik (sertifikatlangan) xomashyo bo'lishi shart | Har qanday tekstil xomashyoga nisbatan qo'llaniladi (organik bo'lishi shart emas) |
| Kimyoviy moddalar | Formaldegid, azo-bo'yoqlar, og'ir metall tuzlari, toksik erituvchilar qat'iy man etiladi | 100 dan ortiq zararli moddalarga (formaldegid, pestitsid, ftalatlar, og'ir metallar) cheklov qo'yiladi |
| Bo'yash va ishlov berish | Ekologik toza bo'yoqlar va ishlov berish moddalarigina ruxsat etiladi; biologik parchalanuvchanlik talab etiladi | Teriga zarar yetkazmaydigan, past toksik bo'yoqlar talab qilinadi; migratsiya testi o'tkaziladi |
| pH ko'rsatkichi | Tayyor mahsulotda pH 4.0–7.5 oralig'ida bo'lishi kerak | Teri bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qiluvchi mahsulotlar uchun pH 4.0–7.5 bo'lishi kerak |
| Sifat nazorati | Har bir ishlab chiqarish bosqichi sertifikatlashtiruvchi tashkilot tomonidan tekshiriladi | Mahsulot tayyor holatda sinovdan o'tkaziladi; har yili yangidan test qilinadi |
| Ijtimoiy mehnat sharoitlari | Mehnat kodeksiga mos ijtimoiy talablar (majburiy mehnatga yo'l qo'yilmaydi, xavfsizlik kafolati) | Talab etilmaydi (faqat salomatlik va xavfsizlik yondashuvi) |
| Sertifikat amal qilish muddati | 1 yil (har yili qayta audit) | 1 yil (har yili yangidan sinov va tekshiruv) |
| Yaroqlilik doirasi | Butun ishlab chiqarish zanjiri: xomashyo, yigirish, to'qish, bo'yash, qadoqlash | Tayyor mahsulot: kiyim, mato, yostiq, choyshab, ro'mol, va b. |
| Markirovka sharti | "GOTS" belgisi mahsulotga qo'yilishi uchun barcha bosqichlar GOTS sertifikatli bo'lishi kerak | "OEKO-TEX®" belgisi faqat testdan o'tgan mahsulotlarga ruxsat etiladi |

GOTS va OEKO-TEX® Standard 100 har ikki standart o'z maqsadi va nazorat doirasi bo'yicha farq qiladi. GOTS ko'proq organik ishlab chiqarish va ijtimoiy mehnat sharoitlariga, OEKO-TEX® esa salomatlik xavfsizligi va gigiyenik muhofaza mezonlariga e'tibor qaratadi. Ipak mahsulotlari ishlab chiqarishda ushbu ikki standartga muvofiqlik mahsulot sifatini xalqaro miqyosda tan olish, ekologik barqarorlik va eksport imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan ilmiy tahlillar va amaliy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, ipak mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayoni ko'p bosqichli, murakkab hamda har bir bo'g'inida aniqlik, texnologik intizom va qat'iy sifat nazoratini talab qiluvchi uzviy tizim hisoblanadi. Tadqiqot davomida ishlab chiqarishning barcha asosiy texnologik bosqichlari — pilla yetishtirishdan boshlab, tayyor ipak mahsulotlarini to'qimachilik mahsulotiga aylantirish va yakuniy sifat nazoratigacha bo'lgan jarayonlar kompleks tarzda tahlil qilindi.

Har bir bosqichda aniqlangan asosiy sifat ko'rsatkichlari hamda ularga mos nazorat nuqtalari tizimlashtirilib, ularning amalda qo'llanilayotgan xalqaro standartlar talablari bilan muvofiqligi asoslab berildi. Xususan, ISO 17202, ISO 14420, OEKO-TEX® Standard 100 va GOTS 6.0 kabi nufuzli me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablar ipak mahsulotlarining ekologik xavfsizligi, gigiyenik tozaligi, fizik-mexanik xossalari va organik ishlab chiqarish mezonlarini to'liq qamrab olishi aniqlashtirildi.

3 Muallif ishlanmasi



Mazkur maqolada keltirilgan natijalar ipak sanoatini modernizatsiyalash, ishlab chiqarish jarayonlarida xalqaro standartlarga mos yondashuvlarni joriy etish hamda sifat nazorati tizimini takomillashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, mehnat sharoitlarini yanada yaxshilash va xalqaro sertifikatlariga ega bo'lish jarayonida GOTS hamda OEKO-TEX® kabi standartlarga muvofiqlik muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

- ipak mahsulotlari ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida xalqaro standartlarga mos yagona sifat menejmenti tizimini joriy etish;
- ishlab chiqarish jarayonlarida texnologik intizomni kuchaytirish va nazorat nuqtalarini raqamli monitoring tizimlari orqali boshqarish;
- ekologik xavfsiz va organik xomashyodan foydalanish ulushini oshirish orqali mahsulotning eksport salohiyatini kengaytirish;
- ishlab chiqarish korxonalarida xalqaro sertifikatlash tizimlarini (GOTS, OEKO-TEX®) bosqichma-bosqich joriy etish;
- ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish orqali ipak tolasi sifatini oshiruvchi innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.

Ipak mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlarini xalqaro standartlar asosida baholash nafaqat mahsulot raqobatbardoshligini oshirishga, balki tarmoqning barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yo'nalishda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, standartlashtirish tizimini yanada takomillashtirish hamda ilmiy asoslangan normativ-huquqiy mexanizmlarni rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. – Toshkent, 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pillachilik tarmog'ida chuqur qayta ishlashni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. – Toshkent, 2019-yil 31-iyul, PQ-4411-son <https://lex.uz/docs/-4456800>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pilla yetishtirish va ipakchilik sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. – Toshkent, 2024-yil 3-aprel, PF-72-son <https://lex.uz/docs/-6913537>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pillachilik tarmog'ida ipak qurti ozuqa bazasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. – Toshkent, 2020-yil 17-yanvar, PQ-4567-son <https://lex.uz/ru/docs/-4704432>
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Pillachilik va qorako'chilikni rivojlantirish qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. – Toshkent, 2020-yil 10-oktyabr, 705-son <https://lex.uz/uz/docs/-5737476>
6. OEKO-TEX® Standard 100. General Requirements. – Zurich: OEKO-TEX Association, 2024. – Available at: <https://www.oeko-tex.com>
7. GOTS 6.0 – Global Organic Textile Standard. – Version 6.0, 2023. – International Working Group on GOTS. – Available at: <https://www.global-standard.org>
8. Vollrath F., Knight D.P. Liquid crystalline spinning of spider silk. – Nature, 2001, Vol. 410, pp. 541–548. DOI: <https://doi.org/10.1038/35069000>
9. Zhang Y.Q. Applications of natural silk protein sericin in biomaterials. – Biotechnology Advances, 2002, Vol. 20, pp. 91–100. DOI: [https://doi.org/10.1016/S0734-9750\(02\)00003-4](https://doi.org/10.1016/S0734-9750(02)00003-4)
10. Altman G.H., Diaz F., Jakuba C., et al. Silk-based biomaterials. – Biomaterials, 2003, Vol. 24, pp. 401–416. DOI: [https://doi.org/10.1016/S0142-9612\(02\)00353-8](https://doi.org/10.1016/S0142-9612(02)00353-8)
11. Hu J. Structure and Mechanics of Textile Fibre Assemblies. – Cambridge: Woodhead Publishing, 2004. – 354 p. DOI: <https://doi.org/10.1533/9781845690205>
12. Blackburn R.S. Sustainable Textiles: Life Cycle and Environmental Impact. – Cambridge: Woodhead Publishing, 2009. – 464 p. DOI: <https://doi.org/10.1533/9781845696948>
13. Kundu B., Rajkhowa R., Kundu S.C., Wang X. Silk fibroin biomaterials for tissue regeneration. – Advanced Drug Delivery Reviews, 2013, Vol. 65, pp. 457–470. DOI: <https://doi.org/10.1016/j.addr.2012.09.043>
14. Rockwood D.N., Preda R.C., Yücel T., et al. Materials fabrication from Bombyx mori silk fibroin. – Nature Protocols, 2011, Vol. 6, pp. 1612–1631. DOI: <https://doi.org/10.1038/nprot.2011.379>
15. Rehman A.U., Koutsos V., Alam P. Bombyx mori silk cocoons: structure, composition, and mechanical properties — a review. – Oxford Open Materials Science, 2026, Vol. 6(1). DOI: 10.1093/oxfmat/itag006
16. Zhang Y., Roohani I. Recent advances in silk fibroin derived from Bombyx mori for regenerative medicine. – Journal of Functional Biomaterials, 2026, Vol. 17(1), Article 12. DOI: 10.3390/jfb17010012
17. Lu F., An M., Liang Q. The sustainability of China's silk trade: analysis of growth effect and influencing factors. – Frontiers in Sustainable Food Systems, 2025, Vol. 9, Article 1521229. DOI: 10.3389/fsufs.2025.1521229
18. Fan X., Wei M., Li Y., Xia Q., Wang X. Genetic engineering of silkworm for enhanced silk mechanical properties: a review. – Materials & Design, 2025, Vol. 260, Article 115031. DOI: 10.1016/j.matdes.2025.115031



19. Nasirillaev B., Rajabov N., Abdukadirov M., Fozilova Kh. History and development prospects of silk farming in Uzbekistan. – E3S Web of Conferences, 2023, Vol. 376, Article 02005. DOI: <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202337602005>
20. Khojimatov R.R. The development strategies of the silk industry of the Republic of Uzbekistan. – International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS), 2025, Vol. 8(2). DOI: 10.5281/zenodo.14861121
21. Batirova A., Umarov Sh., Sokhibova N., Karimov O. Comparative evaluation of biological parameters in the creation of heat-resistant breeds and hybrids of mulberry silkworm (*Bombyx mori* L.). – E3S Web of Conferences, 2024, Vol. 563, Article 03020. DOI: <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202456303020>
22. Nasirillaev B., Oserbaeva S., Jumaniyozov M. Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida tut ipak qurti zot va duragaylarining pilla mahsuldorligi. – Agro Inform, 2021, №2, pp. 35–39.
23. Qodirov Z.A., Shakirov B.M., Madaminova I.O. Ipak qurtini boqish va pilla o'rash davrining pilla sifatiga ta'siri. – Academic Research in Educational Sciences, 2022, Vol. 3(4), pp. 630–639. DOI: 10.24412/2181-1385-2022-4-630-639
24. Raximov A.Yu., Raximov A.A., Qodirov Z. Pillaga dastlabki ishlov berish va saqlash texnologik jarayonlarining tahlili. – Academic Research in Educational Sciences, 2021, Vol. 2(11), pp. 42–51. DOI: 10.24412/2181-1385-2021-11-42-51
25. Raximov A.Yu., Raximov A.A., Qodirov Z. Pillaning pishib yetilganlik darajasining sifat ko'rsatkichlariga ta'siri. – Academic Research in Educational Sciences, 2021, Vol. 2(11), pp. 33–41. DOI: 10.24412/2181-1385-2021-11-33-41
26. Bekkamov Ch., Bekmuratov A. Rayonlashtirilgan tut navlari va ozuqa beruvchi tutzorlarni kasalliklardan tozalash hamda davolash usullari. – Agro Inform, 2022, №2(4), pp. 38–43.
27. Sulaymonov Sh.A. Tabiiy ipakdagi yuqori armirlovchi kimyoviy komponentlarni o'rganish asosida pillani saqlash usullari. – Academic Research in Educational Sciences, 2021, Vol. 2(12), pp. 407–413. DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-407-413

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100